



## KASBIY SHAKLLANISH, KASBIY MA'NAVIYAT, QIZIQISH VA ISHTIYOQ

**Mirhakimova Guljahon Numonjon qizi**

*NamDU magistranti. Namangan, O'zbekiston.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasb, kasbiy ta'lim, kasbiy mahorat, kasbiy ma'naviyat, kasbga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq masalalarini oz ichiga qamrab olgan. Fikrlar faktlarorqali asoslangan. Davlatimizda olib borilayotgan islohot va ushbu sohada qabul qilingan qarorlarga tayangan holda oz mulohalarimizni ham berishga harakat qildik.*

**Kalit so'zlar:** *jamiyat, ravnaq, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, barqaror, aql, ma'naviy, salohiyat, yuksak, daraja, rivoj, yangilanish, yo'naltirilgan, bozor, iqtisodiyot, shakllantirish, jahon, hamjamiyati, ta'minlaydigan, demokratik, huquq, davlat, qurish, kadrlar, tayyorlash, milliy, masala, ustuvor, mezon, sifat...*

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi fuqarolarining aqliy va ma'naviy-ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham inson uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Chunki halqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi ya'ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror bir kasb sohasida ta'lim olish, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida etuk va malakali mutaxassis etishishi tushuniladi.





Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlarini yo'lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali, ota kuchli qiziqishi va o'sha kasbga bolgan muhabbati orqali itarbiyalash lozim deb o'ylaymiz.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ham, ma'naviyat masalasi O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son qarori buning yorqin isbotidir. Uning mazmuni quyidagilarda:

- «Milliy tiklanishdan—milliy yuksalish sari» g'oyasi ilgari surildi;
- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- Uchinchi Renessans –yoshlar nigohida loyihalarni tashkil etish;
- “Ma'naviyat lug'ati” kitobini yaratish
- 2021-2030 yillarda O'zbekiston tarixi fani konsepsiyasini ishlab chiqish kabi istiqboldagi qator bajarilishi ko'zda tutilgan vazifalarda o'ziga xos ifodasini topgan.

Natijada bugungi kunda, barcha shahar va tumanlarda «Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari» yaratildi, universitetlarda «Ma'naviyatshunoslik», «Kasbiy ma'naviyat» fanlari joriy etildi. “Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash — bizning oliy maqsadimizdir.” Shavkat Mirziyoevning “Yangi O'zbekiston — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir” deb nomlangan dasturiy ma'ruzasidan olingan ushbu undovda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va maqsad-muddaolari yaqqol aks etgan.

Mazkur ma'ruzada besh yil oldin qabul qilingan ezgu maqsadlarni hayotga to'liq tatbiq etish yo'lida qanday ishlar amalga oshirilgani va ular qanday ulkan natijalarga olib kelgani, pirovard istiqboldagi taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari aniq-tiniq ko'rsatib berildi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz rahnamoligida barqaror rivojlanishni ta'minlash, xalqimiz ma'naviyatini yangi bosqichga ko'tarish, ma'naviy barkamol avlodni voyaga







etkazish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli vazifalarni nazarda tutuvchi ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda esa Yangi O'zbekiston strategiyasini yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, uning bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning bosh mezoniga aylanmoqda.

Ushbu tarixiy va ob'ektiv ijtimoiy-siyosiy jarayon, O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bugungi taraqqiyoti hamda istiqbolini belgilaydigan strategik tamoyillar, amaliy faoliyat dasturlarini yaratish, ularni amalga oshirish uchun nihoyatda muhim va zaruriy asoslar yaratmoqda.

Ayniqsa, 2021 yilda bu boradagi o'zgarishlar va yangilanishlar natijalariga katta ta'sir ko'rsatayotgan, mazkur yo'nalishdagi ishlarning mazmun mundarijasini tubdan yaxshilayotgan, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli tadbirlar, amaliy va samarali ishlar bo'y ko'rsatayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat kengashi raisi ekanligi belgilab qo'yildi va bu ayni tizimda eng asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishning yaqqol natijasi bo'ldi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Respublika ma'naviyat kengashining ishchi organi sifatida qayta tashkil etildi, uning faoliyat mezonlari va bu boradagi ustuvor vazifalari aniq-tiniq belgilandi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va bu bo'yicha samarali faoliyat yuritilmoqda.

Harakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga etkazishga qaratilgan ma'rifiy targ'ibot ishlari izchil davom etmoqda.

Ikkinchiidan, mamlakatimiz miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ko'lami va miqyosini kengaytirish, uning yangi va zamonaviy tizimini shakllantirish, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlari mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

“Tafakkur” va “Ma'naviy hayot” jurnallari hamda “Ma'naviyat” nashriyoti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tasarrufiga o'tkazildi. Jami 121 milliard so'm, xususan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga 10 milliard so'm, uning joylardagi bo'limlariga 90 milliard so'm, O'zbekiston YOZuvchilar uyushmasiga 20 milliard so'm, “Ma'naviyat” nashriyotiga 1 milliard so'm miqdorida mablag' ajratildi.

Uchinchiidan, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar — el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va u hayotga tatbiq etilmoqda.





Xulosa o'rnida shuni aytisimiz mumkinki, tarbiya va ta'limni bir -biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Ushbu jarayonlarning uzluksiz ravishda tashkil etilishi esa odobli, ma'naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan sog'lom, jismonan baquvvat, keng dunyoqarash, yuksak tafakkur va zamonaviy, ishtiyoqli kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni etishtirib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni. // <http://lex.uz/pages/>.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Ma'rifat» gazetasi. 15 sentabr, 1997 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997.11-12-son. 295-modda.
5. O'zbekistonda test tizimi va uni rivojlantirish istiqbollari. // Axborotnoma. DTM, 2019. - № 7. – B. 3.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2017.
8. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy uslubiy risola. T.: “Ma'naviyat”, 2017
9. Mannheim Karl. Ideology and Utopia. Trans. Louis Wirth and Edward Shils. London: Routledge and Kegan Paul. 2016.
10. Kurbonova M.O. The Golden Age Of Russian Literature. Texas. May, 2022. [www.zienjournals.com](http://www.zienjournals.com).
11. Kurbonova M.O. Aesthetical and philosophical views in the hermeneutical features of the independence poems. Восточный журнал социальных наук. Том 2, выпуск №05. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojss/article/view/284>

